

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**MENGLIYEVA MUNIRA BAXTIYOR QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FE’L ASPEKTUAL MA’NOLARINING**  
**IFODALANISHI VA TIPOLOGIYASI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим  
наукам**

**Mengliyeva Munira Baxtiyor kizi**

Ingliz va o‘zbek tillarida fe’l aspektual ma’nolarining ifodalanishi va tipologiyasi..... 4

**Mengliyeva Munira Bakhtiyor kizi**

Expression And Typology Of Aspectual Meanings Of Verbs In English And Uzbek Languages..... 28

**Менглиева Мунира Бахтиёр кизи**

Выражение и типология аспектуальных значений глаголов в английском и узбекском языках..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**List of published works**

Список опубликованных работ..... 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**MENGLIYEVA MUNIRA BAXTIYOR QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FE’L ASPEKTUAL MA’NOLARINING**  
**IFODALANISHI VA TIPOLOGIYASI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil430 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsull.uz](http://www.tsull.uz)) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Shahobiddinova Shohida Hoshimovna**

filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldashev Akmal Gulamjanovich**

filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Jumaboyeva Jamila Sharipovna**

filologiya fanlari doktori, professor.

**Raupova Laylo Rahimovna**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9a mavzesi, 21-uy) Tel.: +998 (71) 230-12-91; faks: (371) 281-42-44. email: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9a mavzesi, 21-uy) Tel.: +998 (71) 230-12-91. Faks: (371) 281-42-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi)

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida turli tillarda harakatning davomiyligi, takroriyligi va tamomlanganlik -tamomlanmaganlik kabi ma'nolarini ifodalovchi lisoniy birliklarni aniqlash hamda tizimlashtirish so'nggi yillarda dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ba'zi tillarda fe'lning aspektual ma'nolari morfologik yoki sintaktik vositalar bilan aniq ifodalanligi, ba'zilar esa leksemalar orqali anglashilishi aniqlangan. Fe'lning aspektual ma'no turlarini aniqlash amaliy tarjima va tarjima nazariyasi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aspektual ma'nolar tasnifi va aspektuallikni ifodalovchi vositalarni tizimlashtirish til korpuslarida ushbu birliklarning izchil lingvistik razmetkalanishi uchun asos bo'ladi.

Dunyo tilshunosligida aspektual ma'nolarni ifodalovchi vositalarni tavsiflashda an'anaviy (formal) lingvistika, funksional-pragmatik lingvistika va kognitiv lingvistika kabi yo'nalishlar turlicha metodologik yondashuvlar taklif etishmoqda. Kognitiv lingvistikada aspektual ma'nolar inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalar bilan bog'lanadi, ya'ni harakatni qanday tasavvur qilish va kategorizatsiya qilish masalalari muhim o'rin tutadi. Funksional-pragmatik lingvistika nuqtayi nazaridan aspektual vositalar nutq jarayonida qanday maqsadlar bilan qo'llanishi, kontekst va muloqot voqeligi bilan qanday uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Ushbu nazariy izlanishlar natijalari, avvalo, qiyosiy tilshunoslikda beqiyos manba hisoblanadi. Masalan, turkiy tillar oilasi, roman tillar oilasi yoki slavyan tillar oilasi qatorida bir-biridan ancha farq qiluvchi aspekt tizimi, uning semantik ko'lamini va tarkibi o'rganiladi. Aspektual ma'no ifodalovchi vositalarning qiyosiy tahlili, o'z navbatida, tarjimada muqobil elementlarni "jarayon" semasi asosida tanlash imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa, jahon tilshunosligida fe'l aspektual ma'nolari bo'yicha olib borilayotgan nazariy ishlar lingvistika fanining turli yo'nalishlari, xususan, semantika, tarjima nazariyasi va kognitiv lingvistika bilan uzviy aloqada rivojlanib bormoqda. Ushbu izlanishlar natijasida til hodisalarini yaxlit tizim sifatida tushunish, turli tillar o'rtasidagi farqlarni sistematik tahlil qilish, tarjimada lisoniy birliklarning semantik ko'lamini aniqroq aks ettirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek va ingliz tillarining qomusiy xususiyatlari hamda funksional-semantik ko'lamini qamrovchi tipologik tadqiqotlar miqyosi yanada kengayganligi kuzatilmoqda. Xususan, ingliz tili ta'limi, ingliz va o'zbek tillari orasida o'zaro tarjima masalalarini takomillashtirish kun tartibidagi asosiy masalalardan bo'lib qolmoqda. Shuningdek, "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash<sup>1</sup>" uchun til ta'limini mukammallashtirish, tilni nazariy jihatdan o'rganish, qiyosiy tadqiqotlar

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини tubdan ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)

vositasida ingliz va o'zbek tillarining qomusiy xususiyatlarini yoritish talab etiladi. Ana shu maqsadni amalga oshirish ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l aspektualligi funksional-semantik paradigmasini tipologik o'rganish dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son, 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Aspektual ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalarning funksional-semantik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning ilg'or ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlari, jumladan, Oksford universiteti til markazi (Angliya), Bibliografiya instituti (Germaniya), Lingvistik tadqiqotlar instituti (RAN), Prinston universiteti (AQSH), Monpele universiteti (Fransiya), Kompyuter lingvistikasi laboratoriyalari (RF), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida fe'l aspektualligi masalalari antik davrlardan o'rganila boshlangan. Fe'lning tugal va noto'liq shakllari haqida dastlab Aristotel tasnifi yuzaga keldi. Ushbu tasnif yunon tilida Appoloniya Diskol va lotin tilida Mark Terensiy tomonidan takomillashtirildi. Ushbu tasniflarda aspekt ma'nolari sintaktik vositalar bilan ham ifodalanishi mumkinligi haqidagi fikr ilgari suriladi<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup>Баклагова Ю. Предельность/непредельность как аспектуальный признак глагольного предиката // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. – 2010. – №12. – С. 240-244; Маслов Ю. Очерки по аспектологии. – Л., 1984. – 342 с.; Ярцева В. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – 412 с.

German tillari oilasida fe'l aspektlari haqida Yosh grammatiklar maktabi vakillari o'z qarashlarini bayon qilib fe'lning to'g'ri va noto'g'ri shakllari aspekt bo'linishi, ya'ni tugallanganlik va noto'liqlikni aks ettiradi, degan xulosani shakllantirishdi<sup>3</sup>. Fe'l aspekti turli sath vositalari bilan ifodalanishi aniq bo'lgani holda maydon semasi faqat tugallanganlik va tugallanmaganlik ziddiyatida cheklandi. Ma'no klassifikatsiyasi batafsil tahlil qilinmadi, tasnifi batafsil amalga oshirilmadi. Aspektual ma'no ifodalovchi vositalar nafaqat morfologik, balki sintaktik, leksik sathda mavjudligi aniqlandi<sup>4</sup>.

Rus lingvistikasida fe'l aspekti tugallangan va noto'liq zamon shakllari o'laroq «вид» deb nomlandi. A.Bondarko, T.Buligina va boshqalar aspektni вид sifatida targ'ib qilishdi. Fe'l aspektlarini konseptual lisoniy hodisa sifatida tahlil qilish, aspektual ma'no ifodalanishida stilistik, psixolingvistik xususiyatlar borligini e'tirof etish zamonaviy ingliz lingvistlariga xos. Shu bilan birga, aspekt ma'nolarining ifodalanishi grammatik elementlardan kengayib turli sathlardagi lisoniy elementlar va nolisoniy birliklarni qamrovchi yirik funksional-semantik maydon ekani asoslandi. Bu bosqichda tilshunos L.Brinton, O.Dal tadqiqotlari dolzarb ahamiyat kasb etdi<sup>5</sup>.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida aspektuallik masalalari tadqiqi bo'yicha yetakchi olimlar sirasida Leonard Talmiy, B.Komriy, Z.Vendler kabilarning ilmiy izlanishlari alohida e'tirofga loyiq. Leonard Talmiy aspektuallik hodisasini zamon kategoriyasi doirasida tadqiq etib, aspektual zamon shakllarining struktur xususiyatlarini tavsiflagan. Keyingi bosqichda B.Komriy ilk marotaba aspektual ma'nolar grammatik va leksik jihatdan ifodalanishi mumkinligini isbotladi. Z.Vendler semantik tasnif doirasida aspektuallikni holat, natija, davomiy, tugallangan, chegaralangan/chegaralanmagan semalarga ajratadi. Aspekt ma'nolarining ko'plab tasniflari amalga oshirilgan, ularning barchasida tugallanganlik, tugallanmaganlik semalari o'rin oladi<sup>6</sup>.

Aspektuallikning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqida A.G'ulomov, A.Hojiyevlarning o'rni va xizmati alohida ahamiyatga ega<sup>7</sup>. Shuningdek, fe'lning

---

<sup>3</sup>Craft W. Verbs aspect and causal structure. – Oxford: Universty Press, 2012. – 33 p.; Dowty D. Toward a semantic analysis of verb aspect and the English imperfective progressive // Linguistics and philosophy. –Dordrecht; Boston, 1977. – Vol. 1, N 1. – P. 45-77.; Blansitt E. Progressive aspect // Working papers on language universals. – Stanford, 1975. –Vol. 18. – P. 3-34.

<sup>4</sup>Breu W. Interactions between lexical, temporal and aspectual meanings // Studies in language. –Amsterdam, 1994. –Vol. 18, N 1. – P. 23-44.; Bybee J., Perkins R., Paqliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect and modality in the languages of the world. – Chicago: University of Chicago press, 1994. – 398 p.; Klein W. Time in language. – New York.: Routledge, 1994. – 243 p.

<sup>5</sup>Brinton L. The Development of English Aspectual Systems: Aspectualizers and Postverbal Particles. –Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 52 p.; Dahl O. Tense and aspect systems. – Oxford: Blackwell, 1985. – 240 p.; Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: University Press, 1976. – 153 p.

<sup>6</sup>Vendler Z. Verbs and times // Linguistics in philosophy. – Ithaca; London: Cornell univ. press, 1967. – P. 97-121.; Mourelatos A. Events, processes and states. In tense and aspect. – New York: Academic Press, 1981. – 174 p.; Lyons J. Semantics. Vol-2. – Cambridge: Cambridge university press, 1977. – 897 p.

<sup>7</sup>G'ulomov A. Fe'l. – Toshkent: Fan, 1954. – 88 b.; Hojiyev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – Toshkent: Fan, 1966. – 259 b.; Hojiyev A. Fe'l. – Toshkent: Fan, 1973. – 192 b.; Юлдашев А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – М.: Наука, 1965. – 275 с.; Shukurov Sh. Fe'l tarixidan. – Toshkent: Fan, 1970. – 108 b.; Mutallibov S. XI asr yozma yodgorliklarida fe'l kategoriyasi. – Toshkent: Fan, 1955. – 176 b.; Mirtojiyev M.

zamon, bo'lishsizlik, mayl va nisbat kategoriyalari yuzasidan XX asr o'rtalariga qadar fundamental tadqiqotlar olib borildi. O'zbek tilidagi fe'lning ma'no turlari R.Rasulov, valentlik kategoriyasi masalasi S.Muhammedova tomonidan tadqiq qilindi. Tadqiqotchi O.Shukurov o'zbek tilidagi fe'lning tarz ma'nolarini tasniflab, ularning ravishdosh shakli va ko'makchi fe'l qurilmasi vositasida ifodalanishini asosladi. G'.Mirsanov tomonidan aksionallik hodisasining qiyosiy tahlili ingliz va o'zbek tillaridagi harakat fe'llari doirasida amalga oshirildi<sup>8</sup>. Zamon kategoriyasining aspektual semasi qiyosi o'zbek va nemis tillari doirasida B.Rizayev tomonidan tadqiq etilgan.<sup>9</sup>

Tadqiqotimizni amalga oshirish davomida yuqorida nomlari qayd qilingan tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlari xulosalariga tayanildi. Ushbu dissertatsiyada boshqa tadqiqotlardan farqli o'laroq, aspektuallik fe'lning aksar grammatik kategoriyalarini qamrovchi, fe'l va ravish so'zlar semasida ham mavjud bo'lgan yirik funksional-maydon tarzida monografik shaklda tadqiq qilindi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining 2016–2030-yillarga mo'ljallangan "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va ingliz tilidagi fe'l aspekti ma'nolarini tasniflash, aspektual funksional-semantik paradigma strukturasi, tarkibi va ma'no ko'lamini qiyoslash hamda leksikografik, tarjima talqinini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l aspektualligi hodisasini paradigma tamoyili asosida semantik tasniflash hamda ma'no iyerarxiyasini belgilash;

ingliz va o'zbek tillarida fe'l aspekti ma'nolarni ifodalovchi lisoniy birliklarni funksional-semantik maydon sifatida tizimlashtirib, ushbu ma'nolarning morfologik, sintaktik va leksik ifodalashini dalillash;

ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l va ravishlarning ma'no tarkibini tahlil qilish orqali ushbu leksemalardagi aspekt ma'nolarini aniqlash;

---

Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 122 b.; Abdurahmonov G', Shoabdurahmonov Sh., Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1976. – 373 b.

<sup>8</sup>Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2005. – 50 b.; Rasulov R. Obrazli holat fe'llari. –Toshkent, 1982.; Muhamedova S. O'zbek tilida yo'nalma harakat fe'llarining predikativligi va valentligi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 1999. – 22 b.; Muhamedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. –Toshkent, 2007. – 34 b.; Isaqova G. O'zbek tilidagi *qilmoq* fe'lining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 21 b.; Sharipova O'. O'zbek tilidagi yumush fe'llarining ma'no valentliklari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1996. – 152 b.; Abdullayeva D. Semantik-sintaktik valentlik va o'zga gapli qurilmalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2002. – 48 b.; Siddiqov Z. O'zbek va turk tillarida ko'ruv leksemalari semantikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 27 b.; Musayev T. O'zbek tilidagi sezgi fe'llari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1992. –145 b.; Mirsanov G'. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2009 – 48 b.

<sup>9</sup>Ризаев Б. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: Фан, 1999. – 121с.; Ризаев Б. Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. – Самарканд, 2003. – 89 с.



ingliz va o'zbek tillaridagi aspektual ma'noga ega leksemalarning lug'at talqinida vaziyatli tavsif, ziddiyatli izoh usullarini qo'llash leksemalar ma'no ko'lamini va funksiyasini dalillash;

ingliz va o'zbek tillaridagi aspektual ma'noga elementlarning izohli hamda tarjima lug'atlardagi talqini, tarjimasini mukammallashtirish uchun tavsiyalar shakllantirish deb belgilangan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi aspektual ma'nolar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek tillaridagi aspektual ma'nolarning ifodalanishi, tarjimasini hamda leksikografik talqini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy tavsif, komponent tahlil, semantik tasniflash, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida fe'l aspektualligi hodisasi semantik tuzilishiga ko'ra o'zaro muvofiqlik kasb etishi ikki tildagi maydon komponentlarini "jarayon" gipersemasi bilan umumlashtrib, gipersema tarkibini "boshlanish", "davomiylik", "tugallanganlik", "oniylik", "uzluksizlik", "takroriylik", "jadallik", "ohistalik", "to'liqsizlik", "sinash", "nihoyaviylik", "qodirlik" kabi xususiy grammatik ma'nolarga parallel tasniflash orqali asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida zamon, mayl, nisbat, tarz kategoriyalari, fel+predlog qo'shilmasi kabi morfosintaktik birliklar ma'no tarkibidagi aspektual sema mutanosibligi asosida har ikki tildagi funksional-semantik maydonning yadro va markaz komponentlarini tashkil qilishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi aspektuallik funksional semantik-maydoni periferiyasida joylashgan fe'l va ravishlar ma'no tarkibini komponent tahlil qilish orqali leksemalarda aspektual ma'nolar qavatlanishi, ularning o'zaro graduonimik, sinonimik va antonimik ma'no munosabatlariga kirishishi dalillangan;

ingliz tilida tugallangan zamon shakli, modal fe'llar, fe'l+predlog qo'shilmasidan anglashiladigan aspektual ma'nolar o'zbek tiliga fel+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qurilmasi shaklida tarjima qilinishi asosida ingliz tilidagi aspektual ma'noga ega barcha morfosintaktik shakllarga o'zbek tilidagi tarz kategoriyasi leksik-grammatik jihatdan mutanosib ekanligi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida o'zaro ma'nodosh, lug'aviy ma'nosi bir-biriga yaqin ravish va fe'llarni aspektual semasi nomi bilan tavsifiy izohlash orqali lug'atlarda ushbu leksemalarning uslubiy-semantik farqlarini tizimlashtirish mumkinligi dalillangan.

ingliz tilida tugallangan zamon shakli, modal fe'llar, fe'l+predlog qo'shilmasidan anglashiladigan aspektual ma'nolar o'zbek tiliga fel+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qurilmasi shaklida tarjima qilinishi asosida ingliz tilidagi aspektual ma'noga ega barcha morfosintaktik shakllarga o'zbek tilidagi tarz kategoriyasi leksik-grammatik jihatdan mutanosib ekanligi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida o'zaro ma'nodosh, lug'aviy ma'nosi bir-biriga yaqin ravish va fe'llarni aspektual semasi nomi bilan tavsifiy izohlash orqali

lugʻatlarda ushbu leksemalarning uslubiy-semantik farqlarini tizimlashtirish mumkinligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ingliz va oʻzbek tillarida aspektuallikning funksional-semantik maydon sifatida tizimlashtirilganligi mazkur tillarda nazariy tilshunoslik, struktur-substansial tipologiya darsliklari uchun manba boʻlib xizmat qiladi;

ingliz va oʻzbek tillarida feʼl kategoriyalari, feʼl va ravishlar tarkibidagi aspektual maʼnoning izchil tasnifi xorijiy til taʼlimida feʼl va unga yondosh hodisalar talqini uchun metodologik asos boʻladi;

ingliz va oʻzbek tillaridagi oʻzaro maʼnodosh, maʼno darajalanishiga ega feʼllarni aspektual maʼnosiga koʻra farqlash asosida tahrir meʼzonlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi;

ingliz va oʻzbek tillaridagi feʼl, ravish, feʼlning grammatik kategoriyalarini oʻgʻirishga aspektual sema asosida yondashish haqidagi tavsiyalar badiiy matn tarjimasini takomillashtirishga xizmat qiladi;

ingliz va oʻzbek tillaridagi feʼl hamda ravishlarni aspektual semasiga koʻra tasniflash ushbu leksemalarning tarjima va izohli lugʻatlardagi talqinini takomillashtirish imkonini yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq belgilanganligi, qiyosiy komponent tahlil, tipologik tavsiflash, semantik tasniflash hamda usullardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va oʻzbek tillaridagi paradigmalar qiyosiy tahlilini amalga oshirishda, maydonlar semantik tarkibi va elementlarini qiyoslashda, elementlarning semantik munosabatlarni aniqlashda, tipologik lingvistika, lingvistik strukturalizm, pragmalingvistika kabi yoʻnalishlardagi monografiya va darsliklar uchun manba sifatida, til korpusida feʼl va ravishlarni teglash uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati amaliy filologiya va uning turli boʻlimlari, xususan, qiyosiy tilshunoslik, lingvodidaktika, amaliy tarjima, leksikografiya, uslubiyatning fan sifatida oʻqitilishi uchun oʻquv dasturi, oʻquv reja hamda maʼruza matnlarini tuzishda qoʻllanishi bilan asoslanib, “Struktur tilshunoslik”, “Funksional grammatika”, “Amaliy tilshunoslik” fanlaridan darslik hamda oʻquv qoʻllanmalar yaratishda, xorijiy tilni oʻqitish, tarjima bilan shugʻullanuvchi mutaxassislarga foydalanish uchun tavsiya etish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va oʻzbek tillarida feʼl aspektual maʼnolarining ifodalanishi va tipologiyasi tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natija va xulosalar asosida:

ingliz va oʻzbek tillarida aspektuallik gipersemasi “jarayon”, oraliq maʼnolari “boshlanish”, “davomiylik”, “tugallanganlik”, xususiy maʼnolari oniylik”, “uzluksizlik”, “takroriylik”, “jadallik”, “ohistalik”, “toʻliqsizlik”, “sinash”

“nihoyaviylik”, “qodirlik” ma’no turlariga tasniflanib, oraliq semalar yopiq sistemani, xususiyy ma’nolar ochiq semik tizimni tashkil etishi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2019–2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyming: me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 29.06.2024-y. №04/1-1709 ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tili neyming tizimida fe’l bilan bog‘liq nomlarning belgi-xususiylatlari lingvistik tavsifi mukammalligi ta’minlangan, leksema izohini aspektual ma’noga ega birliklar bilan takomillashtirishga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida aspektual ma’noni ifodalovchi til birliklari funksional-semantik paradigma sifatida tizimlashtirilgan – maydon tarkibidagi yadro (zamon kategoriyasi), markaz (mayl, nisbat va tarz kategoriyasi, ingliz tilida predlog + fe’l qo‘shilmasi, modal fe’llar va sintaktik qurilmalar) hamda periferiya (fe’l va ravish) kabilarga bo‘linishi borasidagi xulosalardan 5221000 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yozilgan, 2018-yilda nashr qilingan, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 24.07.2024-y. №02-1886 ma’lumotnomasi). Natijada tilning sistema, paradigma, maydon, kategoriya muammosiga doir mavzularni yoritish, fikrlarni dalillashga hissa qo‘shilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida aspektual ma’no ifodalanishiga shaxs omilining ta’siri gender, fe’l-atvor, kishilar orasidagi munosabat, yosh kabi nolisoniy omillarda namoyon bo‘lishi haqidagi xulosalardan, aspektual ma’noga ega leksemalarning ma’no ko‘lami tahlili, ma’no munosabatlari tavsifi va semantik tasnifiga oid xulosa va natijalardan, shuningdek, fe’l va ravishlarning tavsifiy, sinonimik, zid ma’noli izohlari na’munalaridan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan “IL-402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” davlat innovatsion-tadqiqot doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining 31.10.2024-y. №33-04-877 ma’lumotnomasi). Natijada leksik tavsifda qo‘llanuvchi fe’l va ravishlarning semantik, funksional, pragmatik o‘ziga xosliklari ochib berishga erishilgan.

ingliz-o‘zbek tarjima amaliyotida aspektuallik tarjimasi grammatik transformatsiya davomiy zamon shakllari, modal fe’l, predlogli fe’l hamda ko‘makchi fe’l qurilmasida yuz berishi, leksik-grammatik transformatsiya ravishlarning fe’l+predlog yoki ko‘makchi fe’lli qurilma shaklida namoyon bo‘lishi dalillanib, ingliz va o‘zbek tillarida aspektual ma’noga ega o‘zaro ekvivalent iboralar va ekvivalenti mavjud bo‘lmagan iboralarni o‘girishda izohli tarjimani qo‘llash borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy -tadqiqot instituti tomonidan 2016-2020 yillarda olib borilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” (“Функциональное

словообразование в современном каракалпакском языке”), FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 25.12.2024-y.№524/1 ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha materiallarida keltirilgan turkiy til matnlaridagi aspektual nutqiy birliklarning yevropa tilidagi nutqiy birliklari orasidagi farqlar tadqiqi, bunda tarjima modellarining ahamiyatiga oid ma’lumotlar aniqlashtirilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi aspektual ma’noga ega leksemalar tavsifiy, sinonimlar va zid ma’noli so‘zlar vositasida izohlanganligi – bu usullar orasida tavsifiy yondashuv yuqori darajada informativligi asoslanib, aspektual ma’no asosida tavsifiy izohni shakllantirish haqidagi tavsiyalardan hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da mavjud aspektual ma’noga ega so‘zlarning leksik-semantik munosabatlari, uslubiy farqlanishi, kontekstual sema ifodalashi yuzasidan amalga oshirilgan tahlil natijalari va xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2020-2022-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 25.10.2024-y. №04/1-3029 ma’lumotnomasi). Natijada, fe’llarni semantik teglashda ularning aspektual tarz ma’nolaridan foydalanib, ushbu leksemalarning uslubiy farqlarini ochib berishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, 1 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 180 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Turli tizimli tillarda funksional-semantik maydon nazariyasining taraqqiyot bosqichlari**” deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafi funksional-semantik maydon tushunchasi, uning shakllanishi va taraqqiyoti, yondosh hodisalarga munosabati masalasiga

bag'ishlangan. Lison va nutq qurilishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tizimi hamda tarkibi qadimdan mutafakkirlar e'tibor markazida bo'lgan.

An'anaviy grammatik ta'limotlardan farqli o'laroq, funksional grammatika til hodisalarini ajratib o'ranishni, yakka tartibda tahlil qilib izohlashni maqsad qilmaydi. Funksional tilshunoslikning maqsadi tildagi har bir elementning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan birga, uning boshqa vositalar bilan munosabatga kirishish xarakterini ham o'rganadi. Struktur tilshunoslikning tarmoqlaridan biri bo'lgan funksional lingvistika tabiatini quyidagicha tavsiflash mumkin: til bir maqsadga yo'naltirilgan ifoda birliklari va vositalar tizimi sifatida bir necha vazifalarni bajarishi lozim, ulardan eng asosiysi esa kommunikativ vazifa. Lingvistik funksionalizm namoyandalari tilning asosiy xususiyatlarini bevosita til vazifalarini izohlash va tavsiflash orqali ochish mumkinligini ta'kidlashadi. Ya'ni tilshunoslikda funksionalizmning asosiy g'oyasi til shaklini uning vazifalari orqali izohlashdan iborat. Darhaqiqat, tilning ontologik tabiatini ochish uchun undagi har bir vosita va hodisa o'z vazifasidan kelib chiqqan holda o'rganilishi lozim. Tilning o'zi polifunksional xarakterga ega bo'lgani bois undagi har bir element ham ko'p vazifalilik xususiyatiga ega bo'lishi tabiiy. Anglashiladiki, funksional tilshunoslik tadqiq obyekti farqlanishiga ko'ra bir necha tarmoqlarga ajralib ketadi. Zero, har bir til hodisasi nutqda voqelanar ekan, o'ziga xos grammatik, semantik, sotsial, kommunikativ va pragmatik vazifani bajaradi. Til hodisasining mohiyati ayni shu vazifalarni o'rganish, tahlil qilish orqali ochiladi. Bir til vositasining qator parametrlarini qamrab oluvchi funksional tilshunoslik tadqiqotlari o'z ontologik tabiati sabab ba'zi o'rinlarda strukturalizm tarmoqlaridan biri sifatida emas, balki undan alohida ajralgan va yirikroq ta'limot sifatida ham baholanishi mumkin. Ya'ni funksional tilshunoslik yo'nalish sifatida ba'zan struktur tilshunoslik doirasidan chetga chiqib ketadi. Ushbu yo'nalishga asosan amalga oshirilgan tadqiqotlar til tizimi va uning tarkibiy elementlari vazifa ta'siri ostida, funksional talablar asosida shakllanadi, degan nuqtayi nazardan kelib chiqadi. Funksional tilshunoslik tadqiqotlari til shaklini, undagi qolip va kategoriyalarni vazifasi orqali tavsiflashga, izohlashga intiladi. Shu nuqtada funksional tadqiqotlar formal tilshunoslik gipotezalarini to'ldirishga xizmat qiladi, deyish mumkin, zero, an'anaviy tilshunoslik vakillari til strukturasi tadqiqida har bir vosita funksiyasi hamda umumiy kommunikativ vazifaning til tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini e'tibordan chetda qoldirishar edi. Biroq qamrovining keng ko'lamliligi, natijalari favqulodda yuqori amaliy ahamiyatga egaligi bois chalg'iydigan funksional tilshunoslik an'anaviy, ya'ni formal tilshunoslik nuqtayi nazaridan qoralanishi ham mumkin. An'anaviy tilshunoslikning aniq-ravshan postulatlaridan farqli o'laroq funksional tilshunoslikda hatto tayanch tushuncha bo'lgan "funksiya" ham mazmunan polisemantikdir.

Bobning navbatdagi paragrafi "Funksional-semantik maydon tarkibi turli qurilishli tillar kesimida. FSMda yadro, markaz va periferiya" deb nomlanib unda ingliz va o'zbek tillaridagi paradigmalar tarkibi qiyoslandi. Ingliz va

o'zbek tillaridagi FSMlar strukturasi, ulardagi parallellar va asimmetriyalarni aniqlash uchun yana FSMga murojaat qilamiz. Har ikki tilda ham "egalik, tegishlilik, qism va butun munosabatlarini ifodalovchi yirik paradigma"<sup>10</sup>, ya'ni posessivlik (egalik) FSMi mavjud. Yuqoridagi daraja FSMidan farqli o'laroq egalik, FSMi politsentrik, uning bir yadrosi markazida predikativlik, ikkinchi yadrosida esa atributivlikni ifodalovchi turli morfologik va sintaktik sath vositalari jamlangan. Predikativ yadroning asosiy qurilmasi subyekt+egalik fe'li+egalik obyektidan iborat. O'zbek tilida ushbu qurilma markazini (*bor*) *bo'lmoq* fe'li tashkil etgani holda, ingliz tilida bu fe'l muqobili *to have* hisoblanadi. Maydonning ikkinchi yadrosi ayni qurilmaning aksi, egalik obyekt+tegishlilik fe'li+subyekt shaklida namoyon bo'ladi. Konstruksiya markazini o'zbek tilida *tegishli (bo'lmoq)*, ingliz tilida esa *to belong* fe'li tashkil etadi. Har qanday politsentrik maydonga xos bo'lganidek, posessivlik FSMi yadrosi yaqqol ifodalanlik xususiyatiga ega emas. Ingliz tilida ushbu maydon yadrosi sintaktik konstruksiyalar asosiga qurilgan, o'zbek tilidagi konstruksiyada egalik qo'shimchasi ham mavjud. Ya'ni o'zbek tilidagi posessivlik FSMi yadrosi tarkibidagi elementlar soni ingliz tilidagidan bittaga ko'p. Masalan, ingliz tilida *I + have + a book* qurilmasi o'zbek tilida *mening + kitobim + bor* ko'rinishida, konstruksiya tarkibida qaratqich+qaralmish munosabatining mavjudligi o'zbek tilining agglutinatib tabiatiga ishora qiladi. Atributiv yadro konstruksiyasi esa ikki tilda ham nisbatan simmetrik ko'rinishda, ya'ni ingliz tilida *a book + belongs + to me* qurilmasi o'zbek tilida *kitob + menga + tegishli* ko'rinishida, ular orasida jo'nalish kelishigi va shu ma'noni ifodalayotgan predlog bir-biriga mutanosib. Egalik FSMi har ikki tilda ham qator mikromaydonlarni qamrab oladi. Ular sirasida taksis, mavjudlik, holat, shaxs/obyektivlik, aniqlik/noaniqlik, lokativlik<sup>11</sup> ajratib ko'rsatiladi. Ushbu maydon periferiyasida bilvosita egalik yoki tegishlilikni anglatuvchi fe'llar, masalan, *bermoq, taqdim etmoq, hadya qilmoq, ulashmoq, baham ko'rmoq, bilmoq* kabi fe'llar tashkil etadi. Yadroviy konstruksiyaning markaziy elementi tegishlilik yoki egalik ma'nosiga yaqin turgan vositalar yaqin periferiyani, ushbu ma'nolarni qisman ifodalovchi so'zlar esa uzoq periferiyani tashkil etadi. Anglashilganidek, yadrosi yaqqol ifodalanmagan FSM sifatida o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham sintaktik konstruksiya atrofida markazlashgan paradigmalarni misol keltirish mumkin. Maydon ma'nosining ikkiga bo'linishi, ya'ni posessivlik ikki qutb – "egalik" va "tegishlilik" iboratligi ham ushbu paradigma yadrosining kuchsizlanishiga sabab bo'lgan. Bunday holat borliqdagi mutlaq qonuniyatni til misolida ham asoslaydi, ya'ni yadroning birdan ortiqdagi maydonning keng ko'lamli bo'lishiga zamin hozirlaydi, o'z navbatida, paradigma qamrovi qanchalik keng bo'lsa, unda markazlashganlik xususiyati shu qadar sustlashadi.

<sup>10</sup>Бондарко А. Теория функциональной грамматики. – СПб.: Наука, 1996. –С. 99.

<sup>11</sup>Qarang: Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики: Локативность. Бытийность. Посессивность. Обусловленность [Текст] / А.В. Бондарко. –СПб., Наука, 1996. –225 с.

Uchinchi paragrafda “Aspektuallik tizimi va uning funksional-semantik maydon sifatidagi mohiyati” muhokama qilinadi. Fe’l qator – funksional-semantik maydonlarni o’z ichiga oluvchi yirik mazmuniy maydon. Ushbu funksional-semantik maydonlar sirasida eng salmoqlisi aspektuallik. Manbalarga ko’ra, aspektuallik – harakatning vaqt davomida qanday kechishini ifodalovchi turli sath vositalarini o’zida jamlagan paradigma. Maydon “jarayonlilik” gipersemasi yadrosi atrofida morfologik, so’z yasovchi, sintaktik, leksik va leksik-grammatik elementlarni umumlashtiradi. Rus tilida maydon asosini вид kategoriyasi tashkil etadi, вид kategoriyasi esa umumiy tilshunoslikda “aspekt” kategoriyasi deb nomlanadi<sup>12</sup>.

Yuqoridagi ta’rif aspektuallikning harakat jarayonini ifodalovchi mazmuniy maydon sifatida baholashni taqozo etadi. Biroq jarayon ma’nosi nafaqat harakat semasiga ega fe’llarda, balki boshqa fe’llarda ham, masalan, holat fe’llarida ham uchraydi. Shu sababdan aspektuallikni faqat harakatning davomiyligi, sur’ati va jarayonini ifodalovchi funksional-semantik maydon, deb chegaralash noo’rin. Demak, aspektuallik fe’lning bir ma’no guruhini emas, barchasini o’z ichiga oladi. Aspektuallik funksional-semantik maydoni yadrosi fe’lning turli shakllaridan tashkil topgan. Jarayonlilik, davomiylilik, jadallik va tugallanganlik kabi turli aspektual ma’nolar fe’ldan tashqari boshqa element hamda qurilmalar ko’magida ham ifodalana oladi.

Ingliz tilshunoslari “tense”ni aspektuallik funksional-semantik maydoni yadrosiga joylashtirishadi. Tense faqatgina harakat va holatning vaqt kesimidagi o’rni haqida ma’lumot berib qolmasdan, balki uning kechish tarzi, amalga oshirilishidagi mayl ma’nosini ham tashiydi. Umuman olganda, barcha flektiv tillarga xos bo’lgani kabi ingliz tili morfologik sath vositalari son jihatdan cheklanganligi, bir kategoriya zimmasiga bir necha vazifalar yuklanishi, bir element turli ma’nolarni parallel voqelantirishi bilan ajralib turadi. O’zbek tilidagidek kichik ma’nolarni sintetik, analitik, sintetik-analitik vositalar zimmasiga yuklashning iloji bo’lmagach bir yirik grammatik kategoriyaning bir necha ma’no va funksiyani bajarishiga to’g’ri keladi. Morfologik sath tarkibi qisqargani sari har bir kategoriya yoki undan kichikroq elementning ifoda imkoniyatlari kengayadi. Bunday holatda aksariyat morfologik sath vositalari polifunksional xususiyat kasb etishi tabiiy.

“Aspektuallik” funksional-semantik maydoni yadrosi o’zbek, ingliz va rus tillarida ayni sath, ya’ni morfologik sath vositalarini qamrab olsa-da, har bir tilda ushbu kategoriyalar tarkiban va strukturasiga ko’ra bir-biridan farqlanadi. Maydon markazini esa jami fe’llar tashkil etadi va markaziy qism turli qurilishli tillarda aynan simmetrikdir. Ingliz va rus tillarida “aspektuallik” funksional-semantik maydonining umumiy mazmuni

---

<sup>12</sup>Qarang: Маслов Ю. К основаниям сопоставительной аспектологии // Вопросы сопоставительной аспектологии. – Л., 1978. – 44 с.; Козинцева Н. Временная локализованность действия и ее связи с аспектуальными, модальными и таксисными значениями. – Л., 1991. – 153 с.

“jarayonlilik” gipersemasidan tashkil topgan degan xulosa mavjud. Ushbu gipersemani quyi pog‘onada yana bir necha semalarga ajratish mumkin.

1-jadval

| <b>Aspektuallik funksional-semantik maydoni gipersemasi –<br/>“jarayonlilik” tarkibidagi semalar</b> |            |                |             |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|----------------|-------------|
| Boshlanganlik                                                                                        | Davomiylik | Tugallanganlik | Noto‘liqlik |
| Uzluksizlik                                                                                          | Oniylik    | Takroriylik    | Uzluklilik  |
| Jadallik                                                                                             | Ohistalik  | Intensivlik    | Maromiylik  |

“Jarayonlilik” mazmuniy maydonini ochiq sistemali deb e’tirof etish mumkin. Ushbu maydon tarkibidagi ma’nolar soni cheklanmagan, ajratilgan semalarni esa quyida yana bir necha guruhlariga tasniflash mumkin. Ma’no turlarining ko‘pligi, o‘z navbatida, “aspektuallik” funksional-semantik maydoni tarkibiy qismining ham yirikligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Aspektuallik funksional-semantik maydoni tushunchasining ildizlari, taraqqiyoti va turli tillarda tarkibiy munosabati”** deb, uning birinchi paragrafi “Aspektuallik funksional-semantik maydoni tushunchasining asoslari” deb nomlanadi. An’anaviy tilshunoslik birliklarni shakliy o‘xshashligiga ko‘ra tartiblab, ularning grammatik xususiyatlarini tadqiq etishga urg‘u berdi. Struktur lingvistika va uning tarkibidagi funksional tilshunoslik esa mazmunni birinchi darajali deb belgiladi. Har qanday paradigmada muayyan mazmun, mohiyatni shakllantirish – birinchi darajali masala. Mohiyatni aks ettiruvchi gipersema unikal, boshqalariga mutlaqo o‘xshash bo‘lmasligi shart. Aspekt ma’nosi ana shunday betakror lisoniy hodisa. Aspektni rus tilshunosligi ham, ingliz tilshunosligi ham zamon chegaralarida o‘rgandi. Boshqa fe’l kategoriyalarida ham aspekt ma’nosi borligi inobatga olinmadi. Oldingi o‘rinlarda ta’kidlanganidek, aspektual ma’no harakat va holatning bajarilganlik, amalga oshganlik darajasini belgilaydi. Perfect tense tizimi ingliz aspektualligi asosini tashkil qiladi. O‘zbek tilshunosligida zamon shakllari tarkibidagi ushbu ma’noga urg‘u berilmaydi. Zotan, tugallanganlik yoki boshlanish kabi kichik semalar tarz kategoriyasi ma’no tasnifi hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida aspektuallik ma’nolari bir tizim o‘laroq qiyoslanmagan. Mavjud grammatik kategoriyalarni paradigma yadrosiga joylashtirib aspektual ma’nolar hamda ularning ifodalovchilarini kengroq ko‘lamda tahlil qilish ehtiyoji mavjud. Shu ehtiyojdan kelib chiqib aspekt ma’nolari batafsil tasniflanib, turli sath ifodalovchilari ana shu semantik iyerarxiyaga bo‘ysundirildi. Paradigmaning asosiy gipersemasi jarayonni dastlab zamon shakllari ifodalaydi. Ushbu holat grammatik kategoriyani maydon yadrosiga joylashtirish imkoniyatini beradi. Zero, har qanday zamon shakli nutqda voqelansa, muayyan jarayon bosqichini ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Zamon aspektuallikning asosiy ma’no turlarini qamraydi.



Fe'l mazmuniy makromaydonining gipersemasi "jarayonlilik", ushbu gipersema quyida "harakat" va "holat"ga ajraladi. "Jarayon" gipersemasini kichik semik guruhlariga ajratish ham, anglashilganidek, bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Ayrim tilshunoslar fe'llarni ma'nosiga ko'ra, "harakat", "holat", "munosabat", "nutq faoliyati" singari kichik semalarga, boshqa mutaxassislar fe'lning asosiy semalari sifatida "harakat" va "holat" ma'nolarini ajratishadi. Bunda "munosabat"ni ifodalovchi fe'llar "holat" guruhi tarkibiga kiritilib, munosabat fe'llari hissiy holat, egalik kabi ma'no turlariga ajratilishiga guvoh bo'lamiz.


Ikkinchi paragraf "Aspektuallik funksional-semantik maydoni talqinining tarixiy bosqichlari va semantik ko'lami" masalalari tadqiqiga bag'ishlangan. Tilshunoslikning antik davrlaridan boshlab harakatning zamon bo'ylab kechish sur'ati mutafakkirlarni qiziqtirgan masalalardan biri bo'lgan. Zotan, bu mavzuga dastavval Arastu to'xtalib, yunon tilidagi tugallangan hamda tugallanmagan fe'llar ma'nosini tahlil qilgan. Appoloniya Diskol ham yunon tilida aspektual ma'nolardan ba'zilarini o'rgandi, Varron ushbu masalani lotin tili yuzasidan tadqiq qildi<sup>13</sup>. Albatta, qadim lingvistik traktatlarda "aspektuallik" atamasi uchramaydi, binobarin, uning barcha ma'nolari ham qamrab olinmagan. Keyinchalik tilshunoslikda til birliklarining grammatik xususiyatlarini o'rganish, til hodisalarining shakliy o'ziga xosliklarini tadqiq qilish asosiy maqsadga aylanganligi bois aspektuallik ma'nolari tadqiqi bir muddat susaydi. Fe'l va uning grammatik kategoriyalariga oid tarz (aspekt) ma'nosi turli sathlar doirasida o'rganilmadi. Bu masalaga keyinchalik, an'anaviy tilshunoslikning barcha asoslari shakllanib bo'lgach, ya'ni umumiy lingvistikada tillarning grammatik birliklari va tizimi aniqlashtirilgach qaytildi. Manbalarga ko'ra, aspektuallik atamasidan burun tilshunoslikda "вид" atamasi shakllandi va bu atama keyinchalik "aspektuallik" tushunchasi asosini tashkil qildi. Slavyan tillaridagi fe'lning tugallangan va tugallanmagan zamon turlari вид kategoriyasining mazmuniy markazidir. Bu ma'no turi, albatta, boshqa tillardagi fe'llarda ham mavjud va farqli grammatik kategoriyalar vositasida ifodalanadi.<sup>14</sup> Aytish joizki, aspektuallik funksional-semantik maydoni tadqiqi "вид" kategoriyasining aniqlanishi bilan boshlandi. Ayni damda ushbu kategoriya maydon yadrosini tashkil etishi ham qayta-qayta takrorlangan. "Aspektuallik" yirik gipersemaga ega – "jarayonlilik" gipersemasi qator ma'nolarni qamrab oladi. Ma'nolar soni cheksiz bo'lganligi sabab uni semantik jihatdan ochiq maydon deyish mumkin. Ikkinchidan, ushbu maydonning elementlar qamrovi ham ma'no ko'lami kabi keng. Semantik tarkibiga turli ma'nolarni, grammatik tarkibiga barcha til sathlarini qamrab olgan "aspektuallik" funksional-semantik maydoni markazini faqat "tugallanganlik\tugallanmaganlik" ma'nolari tashkil etishi mumkin emas.

<sup>13</sup>Qarang: Алпатов В. История лингвистических учений. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 367 с.; Фрейденберг О. Античные теории языка и стиля. – М.: ОГИЗ-Соцэкгиз – 344 с.

<sup>14</sup>Агрель А. Способы действия польского глагола: Сб.: Вопросы глагольного вида / Под ред. Маслова Ю. и др. – М., 1962. – С. 35-38.

Bobning “Turli qurilishli tillarda aspektuallik funksional-semantik maydonlarining tarkibi va ma’no ko’lami” nomli paragrafida semantik aspektida batafsil tasnif amalga oshirildi. Unga ko’ra, aspektual ma’nolar quyidagicha tartiblandi:

2-jadval



“Jarayon” gipersemasi tarkibidagi ikkilamchi ma’nolar, jumladan, “jadallik”, “ohistalik”, “takroriylik”, “ehtimol”, “sinash” kabilar maydonning boshqa elementlari vositasida ifodalanadi. Bu ma’nolar zamonaviy o’zbek tilshunosligi taklif etgan tarz kategoriyasi semantik tasnifi asosida ishlab chiqildi. Aspektuallik ma’nolari sirasida maqsadlilik, maqsadsizlik ham mavjud. Umuman olganda, harakat va holat jarayoni turlicha bo’lgani kabi jarayon semalari ham chekchegarasiz. Tarzdan farqli o’laroq, aspektual paradigma fe’lning deyarli barcha kategoriyalarini qamraydi. Bunda zamon, tarz, nisbat va mayl ham maydon tarkibiga kiradi: zamon – asosiy aspektual ma’nolar “boshlanish”, “davomiylik”, “tugallanganlik”ni ifodalaydi; tarz – ikkinchi darajali “oniylik”, “uzluksizlik”, “takroriylik”, “jadallik”, “ohistalik”, “to’liqsizlik” semalarini qamraydi; mayl – “aniqlik”, “ehtimollilik”, “sinash” ma’nolarini anglatadi; nisbat – har ikkala tilda ham “tugallanganlik”, “nihoyaviylik”, “qodirlik” semalarini namoyon qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O’zbek va ingliz tillarida fe’l aspektining lisoniy hamda nolisoniy ifodalanishi”** deb nomlanadi. Bobning birinchi paragrafida o’zbek va ingliz tillarida fe’l aspektining lisoniy ifodalanishi tahlil qilindi. Fe’lning aspekt ma’nolari zamon, tarz, mayl va nisbat kategoriyalari, modal fe’llar, leksik elementlar va sintaktik qurilmalar vositasida ifodalanadi.

Ingliz tilida aspektuallik maydoni yadrosi bo’lgan tense kategoriyasi paradigmaning uch asosiy oraliq ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi, xususiyl ma’nolar leksik-grammatik fenomen bo’lgan fe’l+predlog birikuvida mujassam bo’ladi. Ushbu til hodisasining tarkibi leksik xarakterga ega bo’lganligi bois uni maydon yadrosida joylashtira olmaymiz. Bir so’z bilan aytganda, ingliz tilidagi “aspektuallik” maydoni yadroviiy tarkibi faqat oraliq tarz ma’nolarini qamrab oladi. O’zbek tilidagi “aspektuallik” maydoni yadrosi zamon va ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasidan tashkil topadi. Demak, o’zbek tilidagi “aspektuallik” maydoni yadrosida turgan birliklar ham oraliq, ham xususiyl tarz ma’nolarini ifodalashga

xizmat qiladi. Shunday ekan, o‘zbek tilidagi paradigma yadrosi semantik qamrovi ingliz tilidagidan katta deyish mumkin. Aspektuallik maydoni “zamon” va “tarz” gipersemalari umumlashmasidir. Semik tarkibdagi binarlik o‘zbek tilidagi maydon yadro elementlariga ham ko‘chgan. Ingliz tilida ushbu maydonning ikki yirik gipersemasini ifodalash yadroda bir kategoriya zimmasiga yuklangan. O‘zbek tilida har bir gipersemani ifodalash uchun yadroda alohida kategoriya mavjud.

Funksional-semantik maydon tarkibi yadro, markaz va periferiyadan iborat<sup>15</sup>. Aspektuallik maydoni periferiyasini leksik elementlar tashkil etadi. Ushbu lisoniy elementlarni aspekt ma’nosini ifodalashiga ko‘ra mutlaq va qisman tarz ma’nosiga ega fe’llarga ajratish mumkin. Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham mutlaq aspektual ma’no ifodalovchi lisoniy birliklar oraliq semalarni qamrab oladi. Ya’ni har bir tilda “boshlanish”, “davomiylik” hamda “tugallanganlik” semalari asosiy lug‘aviy ma’no sifatida gavdalangan fe’llar mavjud, ular paradigmanning yaqin periferiyasidan o‘rin oladi.

3-jadval

| Xususiy aspektual semalarning leksik ifodalanishi                                 |                                                              |
|-----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| Ingliz tilida                                                                     | O‘zbek tilida                                                |
| <b>Momentousness:</b> <i>to pitter-patter, to hiss, to burble</i>                 | <b>Oniylik:</b> <i>yiqilmoq, tutilmoq, chaqnamoq</i>         |
| <b>Continuousness:</b> <i>to write, to stretch, to dawdle, to toddle, to chew</i> | <b>Davomiylik:</b> <i>so‘zlammoq, tikmoq, qurmoq</i>         |
| <b>Repeatedness:</b> <i>to tremble, to wave, to sway</i>                          | <b>Uzluksizlik:</b> <i>silkinmoq, tebranmoq, chayqalmoq</i>  |
| <b>Constantness:</b> <i>to moan, to stretch, to observe</i>                       | <b>Uzluklilik:</b> <i>yashamoq, ishlamoq, kuzatmoq</i>       |
| <b>Completeness:</b> <i>to accept, to adapt, to understand</i>                    | <b>To‘liqlilik:</b> <i>yopmoq, ko‘chmoq, unutmoq</i>         |
| <b>Uncompleteness:</b> <i>to intermit, to interfere</i>                           | <b>Noto‘liqlik:</b> <i>bo‘lmoq, ayirmoq, uzmoq</i>           |
| <b>Self addressedness:</b> <i>to use, to abuse, to exploit</i>                    | <b>O‘ziga olish:</b> <i>qaratmoq, foydalanmoq, o‘rganmoq</i> |

Sanab o‘tilgan ma’nolar ushbu fe’llarning bevosita lug‘aviy ma’nosidan anglashilmaganligi bois ularni yaqin periferiyaga joylab bo‘lmaydi. Pog‘onali tartibda ushbu vositalar o‘rta periferiyani tashkil etadi. Yaqin periferiya qismidan bevosita mutlaqo aspekt ma’nosini ifodalovchi fe’l va ravishlar o‘rin oladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “O‘zbek va ingliz tillarida fe’l aspektining pragmatik ifodalanishi” deb nomlanib, unda aspekt ma’nolarining nolisoniy ifoda vositalari muhokama qilinadi. Ma’lumki, shaxs unsuri gender, xarakter-xususiyat, axloqiy, e’tiqodiy, estetik, jismoniy, professional, yosh, saviya kabi qator belgilarga ega.<sup>16</sup> Ushbu belgilar alomatlari va ular ifodalovchi ma’nolar

<sup>15</sup>Qarang: Бондарко А. Функциональная грамматика. – Л.: Наука, 1984. – 136 с.

<sup>16</sup>Qarang: Клаус Г. Сила слова: Гносеологический и прагматический анализ языка. – М., 1967. –С. 35-107.

turli tizimli tillarda, xususan, ingliz hamda o'zbek tilida aynan bo'la oladi. Sanab o'tilgan shaxsiy sifatlar muloqot vaziyatini hosil qiladi.

Shaxsning gender belgisi nutqda voqelanar ekan, xatti-harakat yoki holatning turli aspektual ma'nolarini ifodalashi mumkin. Masalan, ingliz va o'zbek tillarida shaxs genderi vositasida harakatning intensivligi (jadalligi), jadallik darajasi ortib borishi yoki bir ma'romda ekanligi ifodalanishi mumkin. Asosan ayol kishiga xos bo'lgan xatti-harakat ohistalik, kechish tarzining bir maromda ekanligi bilan ajralib turadi. Xatti-harakatning erkak kishi tomonidan bajarilishi esa tarzning yuqori intensivlik darajasini, jadalligini ifodalashga xizmat qiladi. Buni quyidagi misollardan anglash mumkin: *Bu mo'jizadan hayrat domiga tushib qolgan yigit qizning qo'ng'iroqdek jarangdor, ammo mayin ovozidan o'ziga keldi. – Assalomu alaykum. Xush kelibsiz, mehmon. – Rahmat. Yarim tunda darvozangizni qoqib, bezovta qilganimdan xijolatdaman. – Bu yoqqa, – qiz chiroqni bo'yi baravar ko'tarib, sayisxonaga yo'l boshladi* (A.Mustafoev, Yo'lovchi).

Matnda ajratib ko'rsatilgan harakat ohista, bir maromda, davomiy tarzda kechayotganligidan bir necha unsur dalolat beradi. Birinchidan, harakatni amalga oshirayotgan shaxs yosh qiz, u notanish yigitdan iymonib harakatlanmoqda. Ikkinchidan, uning ohista harakatlanishi yana bir tasviriy element, ya'ni qizning mayin ovozi bilan dalillanadi. Ovozda mayinlik yo'l boshlashdagi ohistalik bilan hamohanglashadi va o'quvchi ongida ayni shu tempdagi harakat tarzi gavdalanadi. *Yo'lka ingichka, uzun, yelkasidagi sumkasi esa og'ir edi. Ayol katta yo'ldan o'tayotgan ulovlarga umid bilan tikildi. Ayol xo'rsindi. Og'ir sumka yana o'z joyini egalladi. Ayol yo'lida davom etdi* (Z.Qurolboy qizi, Yomg'irli yo'lka).

Ushbu parchada aspektual ma'no genderning jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib anglashiladi. Ya'ni matn kontekstidan ayol kishi og'ir jismoniy faoliyat bilan shug'ullanganda ish sekin bajariladi. Ayol kishi tomonidan bajarilgan og'ir yuk ko'tarish harakati uzlukli, davomiy va sekin aspektga egadir.

*Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi* (A.Qahhor, Anor).

Ajratilgan matn kontekstidan ayol va erkak kishining taomlanishiga xos bo'lgan kontrastiv xususiyat anglashiladi. Ya'ni tanovul qilingan taom miqdoridan erkak kishi shosha-pisha, shitob bilan taomlanishi, ayol kishi esa bu harakatni davomiy, uzlukli hamda noto'liq tarzda amalga oshirishini tushunish mumkin. Kishi xatti-harakatidagi jadallik\ohistalik, harakatga qancha jismoniy kuch sarflay olish qobiliyati kabilar tarzining gender ifodalovchilari, ushbu pragmatik unsurlar ingliz va o'zbek tillarida aynan. Anglashilganidek, faqat gender vositasida tor ko'lamdagi aspekt ma'nolari ifodalanishi mumkin.

Bobning uchinchi paragrafi "O'zbek va ingliz tilida fe'l aspektining lisoniy-pragmatik ifodalanishi" deb nomlanadi. Fe'l grammatik kategoriyalarining deyarli barchasida aspektual ma'no mavjudligi ham turli tizimli tillarga mos keladigan aksioma. Xususan, fe'lning o'zi ham yuqorida sanab o'tilgan harakat va holat ma'nosidan tashqari aspekt ma'nosiga ega. Aspektual ma'nolarning umumiy birligi sifatida boshlanish, tugallanish va davomiylik belgilandi. Oniylik, takroriylik,

uzluksizlik, intensivlik kabi kichik semalar esa maydonning xususiy ma'nolari sirasiga kiradi. Paradigma tarkibida bir element faqat bitta aspekt ma'nosini yoki bir necha aspektual semalarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun fe'llarni polisemantik deb atash, fe'l kategoriyalari esa jarayon semasi bilan umumlashadi deyish to'g'ri bo'ladi. Bunda faqat shaxs-son kategoriyasi qisman son, qisman hurmatni ifodalagani bois aspektual maydondan chetda qoladi.<sup>17</sup>

Nolisoniy pragmatik omillar kishi yoshi, shaxsi, jinsi, muayyan kimsa yoki masalaga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi kabilarni qamraydi. Bu faktorlar nutqqa ta'sir etadi, boshqa tomondan nutq shu jihatlarni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bunday pragmatik semalar matn yoki nutqiy parchaning asosiy axborotini anglatmaydi, balki asosiy ma'lumotga qo'shimcha, uni to'ldiruvchi uslubiy ma'nolarni tashiydi. Aspektual ma'nolarning yuqoridagi ifodalovchilari sirasida grammatik kategoriyalar neytral uslubiy bo'yoqdorlik kasb etadi. Ulardagi pragmatik-semantik yuklama ham nisbatan neytral. Masalan, zamon shakllari o'zining asosiy aspekt ma'nosidan tashqari fe'l ma'nosiga qarab takroriylik, uzluksizlik, jadallik ma'nolarini kuchaytirib ko'rsatadi. Ya'ni bunday aspektual ma'no qavatlanishi fe'l lug'aviy ma'nosi va zamon shakli, matn konteksti uyg'unligida hosil bo'ladi. Xususan, *Hozir til o'rganyapman* jumlasida zamonning davomiylik ma'nosi *til* so'zi bilan yanada mustahkamlanadi. Bunda til o'rganish jarayoni ancha uzoq va uzluksiz bo'lishi haqidagi tasavvurimiz pragmatik triggerga aylanib, ayni ma'nolarni kuchaytiryapti. Xuddi shu asnoda *Hunar o'rganyapman* jumlasida ham davomiy jarayon cho'ziqligi, uzluksizligi *hunar* so'zidan anglashiladi. Aspektuallikning bunday ifodalanishini lisoniy-pragmatik usul deb qayd qilish, ifoda turi zamon+birikma tarkibidagi so'z ma'nosi uyg'unligidan hosil bo'ldi, deyish mumkin.

Aksincha, *Atrofni o'rganyapman*, *Fikrni o'rganyapmiz* jumllarida davomiylik sur'ati, ya'ni davomiylik aspektual semasi kuchli emas. Buning boisi o'rganish manbasi atrof va fikr yirik emas, tez tugash xarakteriga ega, shuning uchun *o'rganyapman* so'zidagi uzluksizlik, davomiylik semalari zamon qo'shimchasi bo'lishiga qaramasdan kuchsizlanib qolgan. Ayni parallelni ingliz tilida ham keltirish mumkin. *Zero I have been learning a language* jumlasida xuddi o'zbek tilida bo'lgani kabi jarayon davomiyligi va uzluksizligi aynan *a language* leksemasining atash ma'nosidan anglashiladi. Jonli muloqotda lisoniy omillar bilan bir qatorda turli nolisoniy, tilga bog'liq bo'lmagan faktorlar ta'siri seziladi. Masalan, so'zlashuvchilar yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, o'zaro munosabatlari kabi omillar aspektual ma'nolar ifodalanishiga ham ta'sir o'tkazadi. Masalan, yoshlarning xatti-harakatiga "shitob" va "jadallik" semalari xos bo'lgani holda o'rta yosh va keksalar harakatlarida davomiylik, tugallanmaganlik, uzluksizlik ma'nolari o'z aksini topadi. Bunda nolisoniy pragmatik omillar aynan qanday lisoniy ifoda vositasi tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuningdek, fe'llarning aspektologik ma'nolari turli gender ko'rsatkichlarini namoyon etishga xizmat qiladi.

---

<sup>17</sup>Madrahimov I. So'zning serqirraligi va uni tasnif qilish asoslari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 1994. – B. 24.

Dissertatsiyaning so'nggi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida fe'l aspekti ma'nosiga ega so'zlarning leksikografik talqini va maydon elementlari tarjimai”** deb nomlangan. Uning birinchi paragrafida fe'l aspekti vositalarining o'zbek, ingliz tili izohli lug'atidagi talqini yoritiladi. Navbatdagi paragraf esa ushbu ma'nolarning o'zbek tili izohli lug'atidagi talqinini ko'zdan kechiradi. Inglizcha izohli lug'atlarda leksemalarning tavsifiy izohi, qo'llanishi, hatto birikuv imkoniyatlariga ham e'tibor qaratilgan. Biroq zamon tuslanishi faqat bir leksema talqinida aks etgan. Qolgan ikki leksema ham noto'g'ri fe'l o'laroq o'tgan va tugallangan zamonda tuslanadi, biroq Oksford lug'ati ushbu xususiyatni inobatga olmagan – leksikografik talqinda yagona standartdan og'ish holatini ko'ramiz. O'zbek tilida fe'l tovush tarkibi zamon tuslanishi sabab o'zgarishga yuz tutmasa ham, ya'ni aspektuallikning asosiy elementi bo'lgan zamon kategoriyasi standart shaklda bo'lsa ham, izohli lug'atlarda fe'l turli misollar kontekstida talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'ati talqinida misollarning ishonchli manbalardan olinganligi, misollarda so'zning funksional hamda kontekstual-semantik xususiyatlari aks etganligi e'tirofqa sazovor. Biroq izohlarning aksariyati sinonimlarga asoslanganligi lug'atdan foydalanish amaliyotini murakkablashtiradi. Foydalanuvchilar bir so'zning ma'nosini anglash uchun bir necha lug'at maqolalarni o'rganib chiqishi talab etiladi. Aspektual maydon elementlarining leksikografik talqini o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham sinonimik va tavsifiy yo'nalishda amalga oshirilgan. Bunda sinonimik yondashuv bir lug'at maqolani boshqasiga bog'lab qo'yganligi bilan noqulaylik tug'diradi. Shu sababdan aspektual ma'noga ega leksemalarning izohiga tavsifiy nuqtayi nazardan yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tavsifiy izoh xatti-harakat va holat yuzaga kelgan vaziyat, sabab va natijalarni o'z ichiga olishi, misollarda turli kontekstual semalar dalillanishi shart. Shu asnodan fe'l va ravishlarning asosiy lug'aviy ma'nosi bilan birga eng kichik aspektual semalari ochib beriladi. Bu esa lug'atni til o'rganish, tarjima jarayonlarida fundamental tayanch manbaga aylantiradi.

Bobning oxirgi paragrafi aspektual ma'nolarning ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimai masalasiga bag'ishlandi. Turli qurilishli tillarda aspekt tushunchasi mantiqiy universaliga bo'lsa-da, har bir millatning lisoniy tafakkuri ushbu tushunchalarning ifodalanishida lisoniy o'ziga xosliklarni shakllantiradi. Til va tafakkur, shuning barobarida, tilshunoslik va mantiqning o'xshash va farqli jihatlari ayni holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan: *Yuvinib chiqib qarasam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi.* (O'.Hoshimov, “Tarnov”) // *I washed up and looked outside? A gutter on the verge of the iron-roof turned out to have got lopsided* (tarj. H.Allanazarova, “Gutter”); *Uvallo urinaman, la'nati tarnov o'nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo'yog'i yopishib qolganmi...* (O'.Hoshimov, “Tarnov”) // *I made an effort somehow, yet couldn't mend that damn gutter. Either because it rusted or its stain stuck to...* (tarj. H.Allanazarova, “Gutter”).

Yuqoridagi misollarda o'zbekcha ko'makchi fe'lli qo'shilmalar leksik-grammatik vosita o'laroq turli aspektual ma'nolarni ifodalamoqda. Tarjimada ushbu birliklar o'ziga maksimal darajada yaqin bo'lgan fe'l+predlog birikuvi bilan

ifodalanishi kerak edi. Biroq tarjimon fe'lining aspektual-tarz ma'nolariga e'tibor qaratmay, asosiy lug'aviy semani qamragan holda tarjimani amalga oshirgan. Natijada asliyatdagi uslubiy bo'yoqlar o'z kuchini yo'qotib matnda badiiylik so'ngan. Filologik jihatdan ushbu tarjima o'rinli, ya'ni asosiy mohiyat qamrab olingan. Biroq lingvistik-stilistik jihatdan tarjima sifati asliyat jilosini ko'rsatib berolmagan. Boshqa misollar turkumiga e'tiborimizni qaratamiz: *Aksiga olib, yomg'ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog'ib ketdi.* (O'.Hoshimov, "Tarnov") – *As if out of spite it started to rain, at first it was drizzling but then it almost poured down* (tarj. H.Allanazarova, "Gutter"); // *Tomda sirg'alib-sirg'alib, narvon tomon yugurdim* (O'.Hoshimov, "Tarnov"); *Sliding on the roof I ran towards the ladder* (tarj. H.Allanazarova, "Gutter") // *Bahor kelishi bilan bolalar tol navdalaridan hushtak yasashar, qizlar bo'lsa bargak taqib, daraxt soyasida cherta o'ynashardi* (O'.Hoshimov, "Hurkitilgan tush") // *As soon as spring came, boys always made whistles from new branches of the osier, and girls played chertal* (tarj. H.Allanazarova, "Frightened dream"); *Irg'ib o'rnidan turdi-yu, qo'lidagi tayoqni baland ko'tardi* (O'.Hoshimov, "Hurkitilgan tush") // *He leapt to his feet, and raised his stick up* (tarj. H.Allanazarova, "Frightened dream").

Tarjimalarda fe'lining ko'makchi vositasida ifodalangan kichik aspektual semalari ingliz tilida fe'l zimmasiga, zamon shakllari va ravishlarga yuklangan. Tarjimada shakliy birliklar asliyatga muvofiq bo'lmasa ham, umumiy mohiyat, aspektual semalar va stilistik bo'yoqdorlik saqlab qolingan. Tarjimon grammatik transformatsiya usulidan o'rinli, to'g'ri foydalana olgan. Tarjimada mutaxassis muayyan lisoniy shaklni emas, uning matnda qanday ma'no kasb etishini birinchi navbatda e'tiborga oladi. Tarjimonning ish obyekti ma'no va mazmun. Uning vazifasi asliyat mazmunini tarjimada kamchiliksiz yetkazib berish, bunda eng optimal vositalardan foydalanishdan iborat. Qardosh tillardan matn tarjimasida mutaxassislar tarjima matnining asliyat bilan uyg'un, ohangdosh bo'lishiga katta ahamiyat qaratadilar. Turli tizim va strukturaga ega tillar orasida tarjimonlik qilish ushbu talabni chetga suradi. Tarjimon vosita tanlashda nisbatan erkin, muhimi tanlangan vositalar asliyat mazmunini to'liq qamrab olishi shart.

Ikkinchi paragraf "Fe'l aspektining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasini" deb nomlanib unda ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keluvchi muammolar muhokama qilingan. Kesim – gapning semantik markazi. Tarjima jarayonida gap qurilishi o'zgarishi tabiiy hol, yuz berishi muqarrar hodisa deb qaralishi lozim. Chunki strukturasi turlicha bo'lgan ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida pozitsion transformatsiya dastlabki shartlardan biridir. Pozitsion transformatsiya muayyan gap bo'lagining o'rni tarjimada o'zgarib ketishini nazarda tutadi. Inglizchadan o'zbekchaga tarjimada gaplarda ega (subject), kesim (predicate) hamda to'ldiruvchi(object)ning joylashuvi, aniqllovchi vazifasini bajaruvchi sifatlarning gapdagi o'rni o'zgarishi mana shunday pozitsion transformatsiyaga misol bo'ladi. Tarjima jarayonida matnga kommunikativ yondashuvda gapning mazmuniy markazi bo'lgan kesim, bizning holatimizda harakat fe'li va u bilan birgalikda aspektual ma'noni ifodalovchi predloglar ifodalovchi vosita axborotning asosini tashkil etadi. Uning atrofidagi boshqa

birliklar esa tarjima qilinayotgan tilning qurilishiga qarab o'z o'rnini o'zgartiradi. Masalan: *It was raining* (E.Heminguey, "A cat in the rain") // *Mana hozir ham yomg'ir sharros quyaypti.* (tarj. U.Ali, "Yomg'irda qolgan mushuk"); *Across the square in the doorway of the café a waiter stood looking out at the empty square. The American wife stood at the window looking out* (E.Heminguey, "A cat in the rain") // *Ro'paradagi qahvaxona eshigi oldida ofitsiant suvda bo'kkan bog'ga qarab turibdi. Shu damda amerikalik xonim ham xonasidagi deraza ortidan bog'ga nazar tashlayapti* (tarj. U.Ali, "Yomg'irda qolgan mushuk").

Tarjimonlar filologik, qisman lingvistik yondashuvda barcha lisoniy elementlarni mutanosib, muqobil vositasi orqali o'g'irishga intilishadi. Biroq aksariyat hollarda har bir tilning struktur xususiyatlari sabab tarjima birliklari boshqa sathlar bilan "chalkashtirilgan" tarzda beriladi: bir tilda sintaktik, leksik yoki morfologik vosita orqali ifodalangan ma'no tarjima qilinayotgan tilda umuman boshqa grammatik kategoriya zimmasiga yuklatiladi. Buning nazariy asosi sifatida "Shubhasiz, grammatik shaklni tanlash erkinligi bo'lmagan barcha hollarda, ya'ni grammatik shakllardan tobe foydalanish hollarida ularning ma'nosi sof bir tilga oid, faqat til tizimining o'zida mavjud bo'lgan munosabatlar bilan belgilanadi", – deydi taniqli tilshunos Arakin. Aniqroq, atroflicha izohlanganda esa grammatik shaklga tobe holda tarjima qilingan har qanday matn axborot sifatida o'z kuchini yo'qotadi, matn semantikasi grammatik shakllarga tobe holda tuzilishi uning mazmun-mundarijasiga putur yetkazadi. Shuning uchun matn tarjimasida jarayonga grammatik nuqtayi nazardan yondashib bo'lmaydi. Umumiy mazmun-mohiyat olinadi, u to'laqonli o'girilgach qo'shimcha tasviriy elementlar bilan boyitiladi, matn retsipient badiiy-estetik tafakkuriga moslashtiriladi. Aspektual maydon vositalari tarjimasiga ham faqatgina grammatik jihatdan yondashish badiiy matn mazmun-mohiyatining to'laqonli ifodalanishiga, uning retsipient tomonidan oson qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi: matnning kommunikativ xususiyatiga putur yetadi.

## XULOSA

1. Funktsional tilshunoslikning maqsadi tilning barcha sathlarini turli gipersemalar atrofida maydon tartibida tasniflashdan iborat. Elementlarning aniq bir gipersema yoki uning bir qismini ifodalashga xizmat qilishi tilni yaxlit sistema deyishga asos bo'ladi. Shu asnoda til qurilishi, uning ishlash va taraqqiy etish mexanizmi shakllaridagi semantik-vazifaviy xususiyatlarni umumlashtirish orqali ochib beriladi. Turli sistemali tillarda funktsional lingvistikaning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan maydonlar shu gipersemalar atrofida quriladi.

2. Semantik-funksional maydonlar ingliz va o'zbek tillarida har xil tarkibli bo'lsa ham, ma'noviy qolip aynan bir xil bo'ladi. Funktsional-semantik maydon shaklining dastlabki sharti yadroda morfologik kategoriya joylashuvini nazarda tutadi. Ushbu yadro elementlari bir tur yoki ikki tur bo'lishi mumkin. Fe'l aspektualligi mono yadroli, ya'ni zamon kategoriyasi atrofida markazlashgan paradigmalar turiga kiradi. Markazdan esa boshqa grammatik kategoriyalar,



sintaktik qurilmalar joy oladi. Leksik vositalarni gipersemaga yaqinlik darajasiga ko‘ra yaqin va uzoq periferiyaga tasniflash mumkin.

3. Hozirga qadar aspektuallik hodisasi semantik jihatdan asosan “tugallanganlik”, “tugallanmaganlik” semalari doirasida o‘rganilgan. Shu asosda fe’lning zamon kategoriyasi elementlari xatti-harakatning tugallanishi yoki tugallanish bosqichiga yaqinligiga ko‘ra tartiblanadi. Biroq bu kichik ma’no atrofida tadqiqot olib borilsa, aspektuallik zamon kategoriyasining kichik semik vazifasi o‘laroq baholanishi mumkin. Bu – yanglish yondashuv. Ingliz tilshunosligida aspektuallikning to‘rt ma’no turi ajratilgan: tugallanganlik, davomiylik, sinash hamda boshlanish. Bu o‘zbek tilidagi tarz ma’nolarining asosiy turlari bilan parallellik hosil qiladi.

4. Fe’lning aspektualligi faqat shu ma’nolarni qamrash bilan chegaralanmaydi. Aspektuallikning gipersemasi “jarayon” – harakat va holatning kechish jarayonidir. Shu asnodan aspektuallik funksional-semantik maydoni murakkab semantik struktura kasb etadi. “Jarayon” gipersemasi iyerarxiyaning navbatdagi pog‘onasida “boshlanish”, “davomiylik” va “tugallanganlik” oraliq ma’nolariga tarmoqlanadi. Har bir oraliq ma’no quyi pog‘onada xatti-harakat va holatning kechish sur’ati xususiy ma’nolarini qamrab oladi. Boshlanish, davomiylik, tugallanganlik oraliq ma’nolarining har biri tarkibida oniylik, uzluksizlik, takroriylik, shart-ehtimol, jadallik, ohistalik va to‘liqsizlik xususiy semalari mavjud. Ushbu semalarning ifoda vositalari quyidagicha:

zamon – asosiy aspektual ma’nolar “boshlanish”, “davomiylik”, “tugallanganlik”ni ifodalaydi;

tarz – ikkinchi darajali “oniylik”, “uzluksizlik”, “takroriylik”, “jadallik”, “ohistalik”, “to‘liqsizlik” semalarini qamraydi;

mayl – “aniqlik”, “ehtimollik”, “sinash” ma’nolarini anglatadi;

nisbat har ikkala tilda ham “tugallanganlik”, “nihoyaviylik”, “qodirlik” semalarini namoyon qiladi.

Bular maydonning yadro va markaziy elementlari ma’no ko‘lami bo‘lib, maydon periferiyasida leksemalar joylashadi. Aspektuallik funksional-semantik maydonida uch asosiy oraliq ma’no “boshlanish”, “davomiylik”, “tugallanganlik”ni ifodalovchi barcha fe’llar absolut aspektual sema ifodachilari sifatida paradigmaning yaqin periferiyasidan o‘rin oladi. Biroq xususiy ma’nolarni ifodalovchi fe’l va ravishlar maydon uzoq paradigmasidan o‘rin oladi. Sababi ushbu leksemalarda mavjud aspektual sema nutqda zamon kategoriyasi yoki biror absolut aspektual fe’l ta’sirida o‘zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun uzoq periferiya elementlari kuchsiz aspektual ma’no ifodalovchilari deb baholanishi lozim. Ingliz va o‘zbek tillarida aspektual ma’nolarning lisoniy ifodalanishi fe’l grammatik kategoriyalari, sintaktik qurilmalar va leksemalar zimmasida bo‘ladi.

5. Bularning barchasi aspektuallikning lisoniy ifodalanishidir, bundan tashqari, aspektual semalarga turli pragmatik omillar ham ta’sir otkazadi. Jumladan, so‘zlovchi yoshi, ijtimoiy sinfi, jinsi hamda uning faoliyat turi singari nolisoniy omillar ham xatti-harakat sur’atini ifodalay oladi.

*Qari kishi yurib ketyapti* jumlasida harakatning ohistalik, uzoq davomiylik semalari aynan kishi yoshidan anglashiladi. *A boy headed to kitchen for dinner* jumlasida esa xatti-harakatning jadal sur'ati faqat *bolakay* semasidan anglashiladigan kontekstual trigger. Shu tariqa fe'llarning "intensivlik", "davomiylik", "tezkorlik" va "ohistalik" semalariga ko'ra ularni feminitiv va maskulin guruhlariga ajratish mumkin. *Qiz menga qarab jilmaydi* jumlasida ohistalik, oniylik aspektual semalari qizning jilmayishidan anglashiladi. Erkak kishiga xos fe'llar semasida esa jadallik ma'nosi yaqqol ajraladi.

6. Gender, yosh va hokazo nolisoniy omillarga ko'ra fe'llarni tasniflash sof pragmatik xususiyat kasb etadi. Ya'ni bunday tasnif muayyan matn konteksti doirasida, pragmatik nutqiy vaziyat bilan chegaralangan bo'ladi. Amalda nutqiy voqelanish sharoiti, konteksti o'zining so'nggi hukmini bildiradi – ayollarga xos deb baholangan xatti-harakatlar nutqda erkaklarga mansub sifatida gavdalanishi pragmatik aspektdan jonli nutq vaziyati ustun kelganini anglatadi.

7. Ingliz-o'zbek tarjima amaliyotida filologik, lingvistik, kommunikativ usullar hamohangligi mavjud. Turli qurilishga ega tillar orasida tarjima amaliyoti bajarilganda barcha leksemalarni asliyat o'rnida va ayni vazifada saqlab qolish imkonsiz. O'rin almashinuvi pozitsion transformatsiya bo'lsa, vazifaviy siljish grammatik transformatsiyadir. Pozitsion transformatsiya barcha gap strukturalari tarjimasida uchraydi. Biroq grammatik transformatsiyadan faqat murakkab, sodda yoyiq, qo'shma gaplar tarjimasida foydalanish lozim. Bunda grammatik transformatsiyalar matnning konstruktiv yukini yengillashtiradi, retsipient va matn orasidagi munosabat murakkabligi bartaraf etiladi.

8. Aspektual ma'no ifodalovchilari tarjimasida semik o'zgarishlar ham yuz berishi mumkin. Masalan, badiiy asar tarjimasida aspektual vositalar quyidagi yondashuvlarda tarjima qilinadi. Ma'noni umumlashtirish – bunda o'zbek tilidagi *fe'l + ravishdosh shakli + ko'makchi fe'l* konstruksiyasi ingliz tiliga yagona fe'l leksemasi o'laroq tarjima qilinadi. Leksema semik tarkibini kalkalash – ingliz hamda o'zbek tilidagi murakkab ma'no tarkibli fe'lni tarjima qilishda bir necha so'zlar orqali, jumladan, tarz kategoriyasi, ravish birikuvi uyg'unligida tarjima qilinadi. Tarjimini boyitish – tarjimaning umumiy badiiy-estetik xususiyatlari va mazmuniy ko'lamiga putur yetkazmagan holda unga qo'shimcha aspektual bo'yoqdorlik kiritish mumkin. Aspekt semalarini o'girishda mavjud xato va nuqsonlar ushbu semaning tushirib qoldirilishi, chalkashtirilgan holda o'girilishi kabi holatlar misolida ko'rinadi.

9. Aspektual ma'no ifodalovchilarining leksikografik talqinida situativ tavsif va ziddiyat metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'zbek tili izohli lug'atlarida ham, ingliz leksikografik manbalarida ham aspektual semaga ega so'zlarning sinonimik yondashuvda talqin qilinganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu usul semik ko'lamni to'laqonli yoritmaydi. Shuning uchun izohlarda vaziyat tavsifi usulini qo'llash maqsadga muvofiq. Shu tarzda fe'lning lug'aviy ma'nosi bilan birga eng kichik aspektual semalari ham qamrab olinadi. Aspekt ma'nosiga ega payt ravishlarini izohlashda ziddiyat metodi, ya'ni antonimlarni inkor qilish usuli samarali bo'ladi. Aynan zid izoh vositasida o'quvchi ravishning aspektologik-

graduonimik qatordagi o‘rnini aniqlashtiradi. Izohlarga tavsifiy va ziddiyatli metod asosida yondashib, misollarda leksemalar vazifasi va ma’no ko‘lamini dalillash tilning ontologik xarakterini ochib berishi bilan birga lug‘atning informativlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01  
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
AT UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

---

**UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

**MENGLIYEVA MUNIRA BAKHTIYOR KIZI**

**EXPRESSION AND TYPOLOGY OF VERB ASPECTUAL MEANINGS IN  
ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

10.00.06 – comparative study of literature, comparative linguistics, and translation studies

Doctor of Philology (DSc) Dissertation  
ABSTRACT

**Tashkent – 2025**

**The theme of the dissertation of Doctor of Philology (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher education, Science and Innovation at the Republic of Uzbekistan under the registration number № B2022.2.DSc/Fil430**

The dissertation has been carried out at Uzbekistan State World Languages University

The dissertation abstract is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the website of the Scientific Council ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) and on “Ziyonet” information and educational portal ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))

**Scientific supervisor:** **Shahobiddinova Shohida Hoshimovna**  
doctor of philological sciences, professor

**Official opponents:** **Yuldashev Akmal Gulamjanovich**  
doctor of philological sciences, associate professor

**Jumaboyeva Jamila Sharipovna**  
doctor of philological sciences, professor

**Raupova Laylo Rahimovna**  
doctor of philological sciences, professor

**Leading organization:** **Tashkent state university of oriental studies**

The defense of the dissertation will take place on “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 at \_\_\_\_\_ o'clock at a meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 under Uzbekistan State World Languages University (Address: 100100, Tashkent, Uchtepa district, Kichik halqa yuli street, 21A. Tel. (+99871) 230-12-91, Fax: (371) 281-42-44, email: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru))

The dissertation can be received at information-resource center of Uzbekistan State World Languages University (registered under the number \_\_\_\_\_) Address: 100100, Tashkent, Uchtepa district, Kichik halqa yuli street, 21A.

Abstract of the dissertation was sent out on «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025  
(Registry record № \_\_\_\_\_ dated «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025)

**I.M.Tukhtasinov**  
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kh.B.Samigova**  
Scientific secretary of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**J.A.Yakubov**  
Chairman of the Scientific seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (Doctor of Science (DSc) Dissertation Annotation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world linguistics, revealing the categories of action duration, repetition and completion-incompleteness in different languages has been put on the agenda as one of the urgent issues in recent years. In some languages, it has been found that the aspects of the verb are clearly expressed grammatically, and in others, they are understood through the context. In the theory and practice of translation, the definition of verb aspects is important, because the ways of expressing the duration and completion of an action differ in different languages. Practical work, mainly corpus linguistics, experimental methods, translation research, and the development of measures for application in language teaching methods are of great importance in the justification of aspectual meanings.

In world linguistics formal, cognitive and functional-pragmatic linguistics have different methodological approaches in determining the theoretical aspects of verb aspectual meanings. In cognitive linguistics, aspectual meanings are connected with conceptual structures in human thinking, that is, the issues of how to imagine and categorize action are important. From the point of view of functional-pragmatic linguistics, aspectual tools are analyzed for what purposes they are used in the speech process, and how they are combined with the context and the reality of communication. The results of these theoretical studies are, first of all, an invaluable resource in comparative linguistics. For example, the Turkish language family, the Romance language family, or the Slavic language family have very different aspect systems and their foundations are studied. This, in turn, helps to explain differences in the expression of action completion or duration during the translation process. In this way, the theoretical works on the aspectual meanings of verbs in world linguistics are developing in close connection with different layers of linguistics, in particular, semantics, syntax, translation theory and cognitive linguistics. As a result of these researches, opportunities for better understanding of language phenomena, systematic analysis of differences between different languages, and more accurate reflection of nuances of meaning in translation are expanding.

In the years of independence, comparative studies were carried out in our country, reflecting the ontological features of the Uzbek and English languages, functional-semantic possibilities. In particular, "Radically increasing the prestige of the Uzbek language in the social life of our people and at the international level, ensuring the full implementation of the state language in our country"<sup>1</sup>. In order to improve mother tongue and foreign language education, it is necessary to theoretically analyze language phenomena and reveal their ontological nature. This determines the necessity of comparative research of grammatical categories, syntactic devices and lexical devices such as tense,

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)

inclination, ratio, aspectuality functional-semantic field in Uzbek and English languages.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 19, 2021, No. PQ-5117 "On measures to bring the popularization of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level", dated May 13, 2016 No. PF-4997 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", dated February 7, 2017 No. PF-4947 "Uzbekistan Decree No. PQ2789 of February 17, 2017 "On the measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research" , decisions of September 13, 2017 No. PQ-3271 "On the program of comprehensive measures to develop the system of publication and distribution of book products, increase and promote book reading and reading culture" and this activity This dissertation works to a certain extent in the implementation of the tasks defined in other relevant regulatory legal documents.

**Compliance of the research with the priorities of science and technology development of the Republic of Uzbekistan.** The research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy".

**Review of foreign research on the dissertation.** Aspect meanings and forms of verbs are researched in the world's leading scientific centers and higher education institutions, including Princeton University (USA), Bibliography Institute (Germany), Oxford University Language Center ( England), Montpellier University (France), Uppsala University (Sweden), Charles University (Prague), Linguistic Research Institute (RAN), Computational Linguistics Laboratories (RF), Lomonosov Moscow State University (Russia), Aueyzov South Kazakhstan State University (Kazakhstan), as well as Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Bukhara State University, Karshi State University, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Uzbekistan ) is being conducted.

In world linguistics, the issues of verb aspectuality have been studied since ancient times. Aristotelian classification of the perfect and imperfect forms of the verb first appeared. This classification was refined in Greek by Apollonius Discolus and in Latin by Marcus Terence<sup>2</sup>. In these classifications, the idea that aspect meanings can be expressed by syntactic means is put forward. Regarding the aspects of the verb in the German language family, the representatives of the school of young grammarians expressed their views and concluded that the correct

---

<sup>2</sup>Баклагова Ю. Предельность/непредельность как аспектуальный признак глагольного предиката // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. – 2010. – №12. – С. 240-244; Маслов Ю. Очерки по аспектологии. – Л., 1984. – 342 с.; Ярцева В. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. Энциклопедия, 1990. – 412 с.

and incorrect forms of the verb reflect the division of aspects, that is, completion and incompleteness. formed<sup>3</sup>. As it is clear that the aspect of the verb is expressed by means of different levels, the field scheme was limited only by the conflict of completion and incompleteness. Meaning classification was not carried out in detail. In addition to the category of morphological tense, it was found that syntactic devices and lexemes have the feature of expressing aspectual meaning<sup>4</sup>.

In Russian linguistics, the aspect of the verb is called "vid" as perfective and imperfect tense forms. A. Bondarko, T. Buligina and others promoted the aspect as a vid. Modern English linguists evaluated the aspects of the verb as a conceptual linguistic phenomenon and emphasized that its expression shows not only stylistic but also psycholinguistic features. At the same time, it was argued that the expression of aspect meanings is a large functional-semantic field, expanding from grammatical elements to linguistic elements and non-linguistic<sup>5</sup>.

**The degree of study of the problem.** Among the leading scientists on the research of aspectuality issues in world linguistics, the scientific researches of Leonard Talmy, B. Komriy, Z. Vendler deserve special recognition. In his linguistic studies, the aspectuality of the verb was studied within the framework of the tense system, and the influence of aspectual expression devices on the sentence structure was determined. B. Komriy proved for the first time that aspectual meanings can be expressed grammatically and lexically. Z. Vendler divides the semantic classification into state, result, continuous, completed, bounded/unbounded semantics. Many classifications of aspect meanings have been developed, all of which include the concepts of completion and incompleteness.<sup>6</sup>

The services of A. Gulomov and A. Hajiyeu in Uzbek linguistics were great<sup>7</sup>. Until the middle of the century, fundamental studies were carried out about the

---

